- ✓ **Сохранить - Ctrl+S** Faylni xotiraga mavjud formatda joylashtirish
- ✓ **Сохранить как- Shift+Ctrl+S** - Faylni boshqa nom bilan yozish. Ushbu buyruq fayl nomi, formati vadireksiyasi kabi atributlarini o'zgartirishda foydalaniladi
- ✓ **Сохранить версию** - Tasvir nusxasini xotiraga joylash
- ✓ **Вернуть –F12** - Tasvirning dastlabki xolatiga qaytishi
- ✓ **Поместить** - Boshqa mustaqil faly bilan birlashtirish

2.Редактирование (tahrirlash). Buyruqlar (kesish, nusxalash, va hokazolarni) tahrirlash, barcha illyustralarni va uning qismlarini qayta o'lchamlarini va buzib tashlash.




- ✓ **Отмена- Ctrl+Z** - Tasvir ustida bajarilgan oxirgi amalni bekor qilish.
- ✓ **Резать - Ctrl+X** - Tasvirning ajratilgan qismini muvaqqat xotiraga olish.
- ✓ **Копировать - Ctrl+C** - nusxa olish.
- ✓ **Вставить - Ctrl+V** - Muvaqqat xotiradan kursor ko'rsatgan joyga qo'yish.
- ✓ **Очистить** - Tasvirda belgilangan maydonni tozalash, o'chirish. Bunda o'chirilgan maydon fon rangiga bo'yaladi.
- ✓ **Заккрыть** - Tasvir yuzasini asosiy rang bilan bo'yash.
- ✓ **Трансформация - Ctrl+T** - Tasvir shaklini oz'gartiris.
- ✓ **Очистка** - Istoriya darchasida tasvir olib borilgan o'zgartiish amallarini butunlay o'chirish. Bu amal bajarilgandan so'ng o'zgartirishlarni ortga qaytarish mumkin emas.

3. Изображение (Rasm). Hujjatning mazmuniga, xususan ohang va rangni to'g'rilashga ta'sir qilish uchun mo'ljallangan buyruqlar tasvir turini (rangning mavjudligi va turi) o'zgartiradi.



- ✓ **Режим** - rang modellarni o'zgartirish.
- ✓ **Настройка** - tasvir ranglarini sozlash.
- ✓ **Дубликат** - tasvirdan nusxa olish.
- ✓ **Применения Изображения** - tasvir qo'shimcha ranglar bilan boyitish.
- ✓ **Вычисления** - asvirdagi ranglar kanallarini o'chirish.
- ✓ **Размер Изображения** - tasvir shalini va o'lchamlarini o'zgartirish.
- ✓ **Размер Холста** - Tasvir ramkasi o'lchalarini o'zgartirish.
- ✓ **Повернуть Холст** - Xolstni soat strelkasi bo'ylab yoki soat strelkasiga qarama qarshi 180-90 gradus burish.


4. Слой (Qatlamlar). Rasm qatlamlarini boshqarish uchun buyruqlar. Ajratib turing. Maxsus maydon bilan ishlaydigan buyruqlar.



- ✓ **Новый** - yangi qatlamni hosil qilish.


- ✓ **Дубликат слоя** - Qatlam nusxasini hsil qilish.
- ✓ **Удалить слой** - mavjud qatlamni muvaqqat xotiradan o'chirish.
- ✓ **Разгруппировать**- **Shift+Ctrl+G** - Qatlamlarni bir- biridan ajratish.
- ✓ **Объединить слои** -Mavjud barcha qatlamlarni birlashtirish.

5. Выделение (Ajratish). Tanlangan joylar bilan ishlaydigan buyruqlarni o'z ichiga oladi.




- ✓ **Все** - **Ctrl+A**- Tasvirni belgilash.
- ✓ **Убрать выделение** -Tasvirning belgilanangan qismini muvaqqat xotiradan o'chirish.
- ✓ **Выделить заново** -**Shift+Ctrl+D**- Qaytadan belgilash
- ✓ **Цветовой диапазон** - Tasvirdagi ranglar asosida belgilash maydonini aniqlash.
- ✓ **Модифицировать** -Belgilash chizig'ini piksellarda kengaytirish.
- ✓ **Преобразовать Выделение**- Belgilangan maydon shaklini o'zgartirish.
- ✓ **Сохранить Выделение** - Belgilangan maydon shaklini xotiraga joylashtirish.

6.Фильтр (Filtrni). Menyuda rasmlar uchun filtr vazifasini bajaradigan ko'plab qo'shimcha buyruqlar mavjud.



- ✓ **Последний фильтр** – so'nggi filtri.
- ✓ **Преобразовать для смарт фильтров** – **CTRL+F**- smart filterlarga aylantirish.
- ✓ **Галерея фильтров** – filter galereya.
- ✓ **Коррекция дисторсии** – **SHIFT+CTRL+R**- buzqlikni tuzatish.
- ✓ **Пластика** – **SHIFT+CTRL+X**-plastmassalar.
- ✓ **Исправление перспективы** – **ALT+CTRL+V**-perspektiv tuzatish.
- ✓ **Видео** – video
- ✓ **Имитация** – imitatsiya.
- ✓ **Искажение** – buzilish.


7.Вид (Ko'rish). Ish sahifasining ko'rinishini (ko'rsatmalar, boshqaruvchilar va boshqalar) ta'minlash uchun sozlamalarni o'z ichiga oladi.



- ✓ **Увеличение Масштаба Ctrl++** - Tasvirning ekrandagi ko'rinishini kattalashtirish.


- ✓ **Уменьшить Ctrl-** - Tasvirning ekrandagi ko'rinishini kichraytirish.
- ✓ **Показать во весь экран- Ctrl+O** - Tasvirni butun ekranga yoyish.
- ✓ **Фактический размер- ALT+Ctrl+O** - Tasvirning haqiqiy o'lchamlardagi ko'rinishi.
- ✓ **Размер печатного оттиска** -Tasvirning bosma shakldagi ko'rinishi.

8. Окно(Darcha). Asosiy oynaning ko'rinishi ularning tashkilotlarining yordamchi elementlarining mavjudligi va yo'qligi.



- ✓ **Каскад** -Tasvirni ekranda vertical holatda tasvirlash.
- ✓ **Мозаика** -Tasvirni ekranda gorizontol holatda tasvirlash.
- ✓ **Упорядочить Значки** - Qurollar panelidagi buyruqlarni tartibli joylashtirish.
- ✓ **Показать информацию** - Axborotlar darchasini faollashtirish.
- ✓ **Цвета** -Rangalr joylashgan maxsus darchani faollashtirish.


9.Справка(Yordam). Yordam olish uchun ma'lumot buyrug'i.



- ✓ **Справка по Photoshop – F1**- yordam olish Photoshopdan.
- ✓ **О программе Photoshop** – Photoshop dasturi haqida.
- ✓ **О внешнем модуле** – tashqi modul haqida .
- ✓ **Авторские права** – mualliflik huquqi.
- ✓ **Информация о системе**– tizim haqida axborot.
- ✓ **Регистрация продукта** – mahsulotni ro'yxatdan o'tkazish.
- ✓ **Деактивировать** – o'chirish.
- ✓ **Обновления** – yangilanishlar.
- ✓ **Графический процессор** – grafik protsessor.
- ✓ **Показать все пункты меню** – barcha menyu elementlarini ko'rsatish.

Boshqaruv paneli.


Shuningdek, turli dastur funktsiyalarini sozlash va boshqarish uchun mo'ljallangan.



Rang vositalari.


Barcha Fotoshop vositalarini to'rt guruhga bo'lish mumkin:

- chizilgan va bo'yoq vositalari;
- tanlangan hududlarni tanlash va tanlash vositalari;
- rasmni tahrirlash va retuş vositalari;
- matn vositalari.



Vosita attributlari paneli

Har qanday faol tanlangan vosita uchun atributlar (parametrlar) ranglar paneli barcha sozlamalarini namoyish etadi. Boshqacha qilib aytganda, bu panel tanlangan asbobga qarab tashqi ko'rinishini o'zgartiradi.




O'zgaruvchi ranglar


Ranglar dastur interfeysini o'ng tomonida joylashgan bo'lib, undagi Fotoshop elementlarining ayrimlari guruhlangan. Ranglar o'rnatilishi mumkin, rasmchalarga kamaytiriladi yoki darcha tashqarisiga ko'chiriladi.

Holat qatori

Dasturning pastki chegarasi bo'ylab vaziyat paneli (status bar) deb nomlangan maxsus satr mavjud. Joriy fayl, tasvir va joriy vosita haqida ma'lumotni ko'rsatish uchun mo'ljallangan.



MA'RUZA № 4. OBYEKTЛАRNI XARAKATLANTIRISHNI YARATISH TEXNOLOGIYASI.



1.Asosiy tushunchalar.

Macromedia Flash dasturi animatsiya yaratishda dunyoda keng qo'llaniladigan dastur. Bu dasturda ishlashni ommaviylashganligi sabablaridan biri, ishlashda dastur interfeysi qulayligi, hamda funksiyalari ko'pligidir.

Macromedia Flash MX dasturi bilan ishlash uchun zaruriy vositalar:

1. Intel Pentium 200MGS (Yaxshisi 400) protsessori.
2. 64 Mb dan kam bo'lmagan operativ xotira (yaxshisi 128 Mb dan boshlab).

3. Qattiq diskda 85 Mb bo'sh joy.
4. 1024x768 piksel va 16 bit rangli monitor.
5. Windows XP va undan yuqori operatsion tizimi.

Multimedia - interaktiv audio-vizual kompyuter texnologiyalari to'plami.

Animatsiya - o'zgaruvchan tasvirlarning (ramkalar) ketma-ketligi bo'lib, natijada ko'rish harakati xayolparvarligi (tasvirning shakli va / yoki joylashishini sekin o'zgartirish).

Animatsiya yaratish dasturiy ta'minot:


- ✓ Siz tayyor tasvirlardan animatsiya yaratishingiz mumkin bo'lgan dasturlar (turli gif-animatorlar, masalan, Microsoft GIF Animator).
- ✓ 2D animatsiyalarni yaratishga imkon beruvchi dasturiy muhit (masalan, Adobe Flash CS4, Synfig).
- ✓ 3D animatsiyani yaratishga imkon beruvchi dasturiy vositalar (masalan, Autodesk 3ds Max, Blender).
- ✓ Grafik muharrirlari yordamida, masalan, Adobe Photoshop yoki GIMP.
- ✓ Raqamli kamera bilan animatsiya yaratish dasturlari.

2.Macromedia Flash dasturni interfeysi.


Flash interfeysi Adobe firmasining dasturlari (masalan, photoshop) interfeysiga o'xshash bo'lib, nuqtali grafika bilan ishlashga mo'ljallangan.

Chapda chizish uchun mo'ljallangan instrumentlar paneli joylashgan. Ular yordamida instrumentlar tanlanishi, shuningdek ishchi sohani boshqarish, obyektlarni o'zgartirish va ranglar tanlash mumkin. O'ng tomonda instrumentlarda sozlash, rang, matn, kadrlar xususiyati va obyektlar palitralari joylashgan. O'rtada ishchi soha, uning ustki qismida esa vaqt diagrammasi **{Timeline}** joylashgan. Ishchi sohada alohida grafik va matnli elementlar yaratiladi.

Dasturni ishga tushirish uchun Windows ning **Пуск** tugmasining **Все Программы** bo'limining **Macromedia** guruhi ichidagi **Macromedia Flash** buyrug'ini tanlaymiz. Natijada ekranda quyidagi dastur darchasi hosil bo'ladi.



Flash dasturida ishlash uchun biz bir nechta yangi tushunchalar bilan tanishimiz zarur. Bular: **Flash belgisi, grafik tasvir (simvol), animatsion klip, aktiv tugma, ssena, kadr, boshqaruv kadr, vaqt-chizgichi va qatlam.**



Macromedia Flash yordamida siz quyidagilarni yaratishingiz mumkin:

- ✓ animatsion filmlar;
- ✓ taqdimot videosi;
- ✓ reklama bannerlari;
- ✓ veb-sayt navigatsiyasi;
- ✓ veb-saytlar;
- ✓ o'yinlar.

Kadrlar— ramkalar, ob'ektlar yoki uning qismlari harakatining ketma-ket bosqichlari chizilgan yoki suratga olingan tasvirlardir.

Kalitli kadr - tasvirlarni yaratish va qayta ishlash uchun kadr.

Oddiy kadr - faqat animatsiyada kalitli kadrni tarkibini ko'rsatadigan kadr va unga ishlov berilmaydi.

Kadrni kodidan ochish - avtomatik tarzda tasvirni kalitli kadrdan boshqa kadrli kadrqa o'tqazadi.

Kadr-model - vaqtinchalik diagrammada bo'sh katakcha va uni ichida kalitli kadr o'rnatiladi yoki oddiy kadr o'rnatiladi.

Ikki xil kadrlar mavjud:

- 1) Shaklni o'zgartirish asosida qurilgan kadrlar (shape tweening).
- 2) Belgilarga asoslangan kadrlar (motion tweening).

Dasturning elementlari.

1) **Asosiy menyu** - dasturni boshqarish va Flash-film yaratish uchun buyruqlar majmui.

2) Ishni engillashtirish uchun, eng tez-tez ishlatiladigan buyruqlar **asosiy asboblarni panelida kiritilgan va uni** ochish uchun quyidagi buyruq ishlatiladi **Window->Toolbars->Main.**

Asosiy menyuga va asosiy buyruq paneliga qo'shimcha ravishda interfeys quyidagilarni o'z ichiga oladi:

✓ **Tahrirlash asboblarni paneli (TOOLS)** - grafik moslamalarni yaratish va tahrirlash uchun ishlatiladigan asboblardan foydalanishni ta'minlaydi.

 - V - Shakl yoki sohani tanlash va uni kadr bo'ylab harakatlantirish

 - A - Kadrda tanlangan shakl chegaralarini o'zgartirish

 - N - Kadrda chiziq turdagi shakl chizish

 - L - Kadrda lasso yordamida ixtiyoriy soha tanlash (sehrli tayoqcha va ko'pburchak laso holatlari ham mavjud)

 - P - Kadrda ko'pburchak turdagi shakl chizish

 - T - Kadrda matn elementini qo'shish

 - O - Kadrda aylana turdagi shakl chizish

 - R - Kadrda to'rtburchak turdagi shakl chizish (burchaklari aylanasimon holati ham mavjud)

 - Y - Kadrda qalam yordamida shakl chizish (chizilgan shakl chegaralar turini o'zgartirish holati ham mavjud)

 - B - Kadrda mo'yqalam yordamida shakl chizish (chizish turi, mo'yqalam qalinligi va shaklini o'zgartirish holatlari ham mavjud)

 - Q - Kadrda tanlangan shaklni cho'zish (shaklni aylantirish, cho'zish, qiyshaytirish, chegaralarini o'zgartirish holatlari ham mavjud)

 - F - Kadrda tanlangan shakl ranglarining yo'nalishini o'zgartirish

 - S - Kadrda tanlangan shakl chegaralar rangini o'zgartirish

 - K - Kadrda tanlangan shakl orqa rangini o'zgartirish (to'liq cheklangan shakl, to'liq cheklanmagan shakl va butunlay cheklanmagan shakl orqa rangini o'zgartirish holatlari ham mavjud)

 - I - Kadrda ishlatilgan rangni qayta tanlash

 - E - Kadrda ixtiyoriy sohani o'chirgich yordamida o'chirish (chegara, orqa rang va tanlangan rang, o'chirgich qalinligi va sehrli o'chirgich holatlari ham mavjud)

 - H - Kadr sohasini siljitish

 - Z - Kadrlari mashtabini o'zgartirish (kattalashtirish yoki kichiklashtirish holatlari ham mavjud)

 chiziqlar rangini va  orqa rangini o'zgartirish sohalarini tanlaganimizda quyidagi muloqot sohasi hosil qilinadi.

✓ **Ish maydoni ob'ektni tahrirlash operatsiyalarini bajarish uchun ishlatiladi.**

✓ **Vaqt-chizgichi (TimeLine - Временная шкала) – Flash dasturida animatsion**


harakatlarni yaratishda asosiy ish quroli hisoblanadi. Ushbu sohada qatlam va kadrlarni ko'rishimiz va ular ustida har xil amallarni bajarishimiz mumkin. Vaqt-chizgich orqali qatlamlarni joylashuvi va turi, kadrlar turi (boshqaruv va avtomatik yaratilgan kadrlar) va ulardagi action dasturlash skriptlar mavjudligini ko'rishimiz va sozlashimiz mumkin.

Vaqt-chizgichning chap (qatlamlar) tomoni.

-  - ustuni qatlam ko'rinishi yoki ko'rinmasligini,
-  - ustuni qatlamni o'zgartirish mumkinligi yoki mumkin emasligini,
-  - ustuni qatlam elementlari to'liq yoki faqat chegaralari ko'rinishini, o'zgartirishga yordam berish,
-  - tugmasi yangi qatlam yaratish,
-  - tugmasi harakat trayektoriyasi qatlamni yaratish,
-  - tugmasi qatlamlar uchun papka yaratish,
-  - tugmasi esa tanlangan qatlamni o'chirish amallarini bajaradi.

Vaqt-chizgichning o'ng (kadrlar) tomoni.

Vaqt-chizgich o'ng tomonining pastki qismida joylashgan  - soha bosh kadrda o'tish, qo'shni kadrlarni yoki ular chegaralarini ko'rsatish hamda bir nechta kadrlarni bir paytda tahrirlash tugmalari,  - sohasi esa nechanchi kadr tanlangani, kadrlar tezligi va nechanchi sekundda joylashishimizni ko'rsatuvchi tugmalar.



Qatlam (Layer - Слой) – har bir grafik muharrirlaridek Flash dasturida ham qatlamlardan foydalanamiz. Qaysi qatlam yuqorida joylashgan bo'lsa, shu qatlam obyektlari boshqalar ustida ko'rsatiladi. Qatlamni ko'rinmas yoki o'zgartiruvchan emas holatga o'tkazish mumkin. Qatlamlar oddiy, harakat trayektoriya qatlami yoki maska (paydo bo'lish) qatlam ko'rinishida bo'lishi mumkin. Bir vaqtdagi bir nechta har xil harakatlar uchun har xil qatlamlar kerak.



Kadr (Frames - Кадр) – Flash va ko'pgina animatsion muharrirlar hamda video montaj dasturlari asosida kadrlar ketma-ketligi joylashgan. Kadrlarni siz o'zingiz chizib yaratishingiz yoki dastur uni o'zi avtomatik yaratishi mumkin. Kadrlar

ichida boshqaruv kadr (keyframes – ключевой кадр) tushunchasi mavjud bo'lib, u harakat trayektoriyasining nuqtalarini belgilaydi. Avtomatik yaratilgan kadrlar esa ikki xil bo'ladi: shakllar geometriyasining o'zgarishi (**shape tweening**) yoki boshqaruv kadrlar o'zgarishi (**motion tweening**) asosida yaratilgan kadrlar.

Kadrlar ustidan bajariladigan asosiy amallar.

F7 yoki **Вставка** menyusida **Вставить пустой ключевой кадр (Insert blank keyframe)** – aktiv qatlamda yangi bo'sh boshqaruv kadr yaratish,

F6 yoki **Вставка** menyusida **Ключевой кадр (Insert keyframe)** – aktiv qatlamda keyingi boshqaruv kadrini yaratish,

Shift+F6 yoki **Вставка** menyusida **Очистить ключевой кадр (Clear keyframe)** – aktiv qatlamda tanlangan boshqaruv kadrini tozalash,

F5 yoki **Вставка** menyusida **Кадр (Insert frame)** – aktiv qatlamda bush kadrini yaratish,

Shift+F5 yoki **Вставка** menyusida **Удалить кадр (Remove frames)** - aktiv qatlamda tanlangan kadrini tozalash.




Belgilar (Symbol - Символ) – Flash dasturning asosiy elementlaridan biri. U oddiy grafik yoki bir nechta qatlamdan iborat murakkab grafik tasvir (graphic), animatsiyalashgan klip (movie clip) yoki aktiv tugma (button) ko'rinishida bo'lishi mumkin. Har bitta belgi o'z ichiga bir nechta boshqa belgilarni olishi mumkin bo'lganligi sababli Flash dasturida ishlash juda qulay. Yangi belgi yaratish uchun **Ctrl+F8** yoki **Вставка** menyusida **Новый символ (New symbol)** buyrig'ini tanlaymiz. Natijada yangi belgini yaratish muloqot darchasi chiqadi, ushbu darchada biz belgi turini (grafik tasvir – **graphic**, yoki aktiv tugma – **button**) tanlaymiz va OK tugmasini bosamiz. Yangi belgini boshqa yo'l bilan ham yaratish mumkin. Agar biror bir tasvir qismini sichqoncha bilan tanlab, **F8** yoki **Вставка** menyusida **Преобразовать в символ (Convert to Symbol)** buyrig'ini tanlasangiz, u holda **Flash** shu tasvir asosida siz tanlagan turga mansub yangi belgi yaratadi.


✓ **yordam paneli** - ob'ektlar, grafikalar, ramzlarni qo'shish yoki o'zgartirish uchun ishlatiladi.

✓ **ishchi soha (Properties)** - ostida xususiyatlar palitrasi joylashgan bo'lib, u turli ob'ektlar xususiyatlarini o'zgartirish uchun mo'ljallangan.

Darchaning o'ng tomonida kadrni ko'rish masshtabini o'zgartirish sohasi joylashgan. U yordamida to'liq kadrni, to'liq ish sohani, 25%, 50%, 100%, 200%, 400% va 800% ko'rinishiga o'tkazish mumkin.




Har bir grafik shakl va belgi o'zining xususiyatlariga ega. Ushbu xususiyatlarni ekranga chiqarish va ularni o'zgartirish uchun chap tugmasi bilan tanlab **Свойства (Properties)** yoki **Ctrl+F3** yoki **Окно** menyusining shu nomli buyrug'ini tanlaymiz. Natijada shu nomli mulokot darchasi ekranda hosil qilinadi va u yordamida biz har bir grafik shakl va belgining xususiyatlarini o'zgartirishimiz mumkin bo'ladi.



Masalan, **ish sohaning bo'sh joyiga** bosib shu darchada hosil qilingan elementlar orqali ish sohaning hajmini, orqa rangini va kadrlar almashish tezligini o'zgartirishimiz mumkin. Agar **boshqaruv kadr** tanlangan bo'lsa, u holda animatsiya turi, uning xususiyatlari, tovush bilan jihozlanish va hokazo holatlarini o'zgartirishimiz mumkin. Agar **matn elementi** tanlangan bo'lsa, u holda matn harflar shakli, kattaligi, intervallari, rangi, abzasda joylanishi va hokazo shriftga tegishli holatlarni o'zgartirish imkoniyati paydo bo'ladi. Agar **grafik shakl** tanlangan bo'lsa, u holda uning kadrda joylashish koordinatalari, kattaligi, chegara chiziqlarining qalinligi va rangi, ular turi va shaklning orqa (ichki) rangini o'zgartirish imkoniyati paydo bo'ladi.

3. Matn va rang bilan ishlash.

 chiziqlar rangini va  orqa rangini o'zgartirish sohalarini tanlaganimizda quyidagi muloqot sohasi hosil qilinadi.



U yordamida yoki rang kodi orqali yoki **256 rangdan** tanlab yoki spektrdan rangni tanlab olishimiz hamda rang berish yo'lini tanlashimiz mumkin. Rangni

boshqa yo'l bilan ham o'zgartirish mumkin. Buning uchun **Окно** menyusidagi **Цветовой набор (Ctrl+F9)** va **Цветовой микшер (Shift+F9)** buyruqlarni ishga tushiramiz.


Panel quyidagi jarayonlarni bajarishga imkon beradi:

- ✓ tanlangan yoki yangi yaratilgan ob'ekt uchun to'ldirish rangini belgilash;
- ✓ tartibga solish mavjud gradient fills;
- ✓ plomba sifatida ishlatiladigan bitmap tasvirini tanlang;
- ✓ yangi oyna yaratish va flesh palitrasining asosiy ranglarini tahrir qilish.


Ko'rib turganimizday Flash dasturining interfeysi ko'pgina bloklardan tashkil topgan.

Har qanday Flash filmiga matn qo'shilishi mumkin. Matn o'lchami, shrift, uslub, oraliq, rang va tekislash usuli bilan belgilanishi mumkin. Boshqa narsalar kabi shriftni aylantira olish qobiliyati - aylantirish, masshtablyash, burilish.

Flash dasturida Shriftlarni o'zgartirish mumkin, buning uchun... Tools palitrasidan **A** belgisini belgilaymiz va ish stolimizga masalan TEXT degan matni kiritamiz.




Yozgan matnimizni buyash uchun Tools blokida berilgan  instrument yordamida yozgan matnimizni belgilaymiz va pastki Properties blokidan ranglar palitrasini tanlab o'zimizga kerakli rangni quyishimiz mumkin...



Ish stolomizga aniqlik kiritish kerak bo'lsa quydagi funktsiyani bajarishimiz mumkin.

View-Grid-Show Grid va ish stolimizda quydagi o'zgarish hosil bo'ladi.




4. Animatsiya yaratish. Animatsiya turlari.

Flashda bajarilgan ishlarning natijasini (fayllar, animatsiya, sa-hifalar) — multfilm, klip, videolavha, rolik va animatsiyalar deb atash qabul qilingan (umumiy termin — **movie**).

Flashda rolik yaratish jarayoni quyidagicha:


Dastlab **fla** kengaytmali boshlang'ich yoki mualliflik fayl (tahrirlab bo'ladigan boshlang'ich fayl) yaratiladi. Keyin brauzerda ko'rish mumkin bo'lgan **swf**-faylga o'zgartiriladi. Bundan tashqari, ishning natijalarini keng tarqalgan formatlar fayllari **avi**, animatsion **gif**, **jpeg** va boshqa formatlarga eksport qilish mumkin.

Macromedia Flash dasturiga kirishimiz bilan quydagi darcha hosil bo‘ladi.




Bu darcha yangi foydalanuvchilarga o‘ziga hos yo‘l deb bilsak ham bo‘ladi, masalan unda shablonlar, uquv qullanmalar mavjud bo‘ladi.


Bu darchadan yangi ish boshlashimiz uchun **Flash Document** qismini belgilaymiz.




Windows-Library(Ctrl+L) funksiyasini bajaramiz va **Flash** interfeysining o‘ng tomonidan **Library** bloki hosil bo‘ladi, unda biz foydalanmoqchi bo‘lgan xar xil obyektlar mavjud. Rasmni ekranga olib o‘tamiz...



Timeline blokida sloylar(qatlamlar) hamda, framlardi kiritishimiz mumkin bo'lgan interfeys mavjud. Tiny ni belgilaymiz 30 ni belgilab o'ng tomondan menyudan **Insert key frame** ni belgilaymiz.




Yangi **Слой (qatlam)** qushamiz va animatsiya hosil qilamiz. Yangi sloydi hosil qilishimiz uchun Timileni blokidan yangi **Слой (qatlam)** qushishimiz mumkin.




Va yana tenydi belgilab **30 dan 60** gacha bo‘lgan **frame** larni belgilaymiz. Qilgan ishimizni ko‘rish uchun **Control – Test Movie (Ctrl+Enter)** funksiyasidan foydalanishimiz mumkin...

Qilgan ishimizni quydagisha ekspert qilishimiz mumkin...


File-Export-Export Movie.



Fayl formati standart **(*swf)**, buni o‘zgartirishimiz mumkin. Mos proigrivatelga formatda saqlanadi. Windows **AVI (*.avi)** da saqlashimiz mumkin.



Va yana quyidagi darcha hosil bo‘ladi...



Bu yerda **Compress video** qilgan ishimizni siqishga imkon beradi. **Smooth** agar rastrli bo‘lsa ekspert qilishda foydalaniladi **Sound** format kerakli bandini tanlanadi. **Mono** yoki **Stereo**.

Ushbu usul asosan obyekt formasining bir turdan ikkinchi turga o‘zgarishiga asoslangan.

Birinchi marta **Oval (O)** instrumenti yordamida aylana chizib olamiz. **Ellips** emas, balki aylana hosil bo‘lishi uchun **Shift** tugmasi birgalikda bosib turiladi.

Arrow (A) elementini ishlatib va **Timeline** bo‘limida **30 kadrni** belgilang. Bosh menyudan **Insert > Keyframe (F6)** buyrug‘ini bajaring. Bu harakat bilan siz **30 kadrni** kalit kadrغا aylantirdingiz. E’tibor bering, lineyka ostida kadrlar kulrang rangga bo‘yalib qoldi.

30 kadrda Rectangle (R) instrumenti yordamida aylananing chap qismida to‘rtburchak chizing. **Arrow (A)** instrumentini tanlang va aylanani belgilagan holda **Delete** tugmasi yordamida uni o‘chirib tashlang.



Sichqoncha tugmasini **1-30 kadrlar** orasida ikki marta bosing va hosil bo'lgan paneldan **Tweening** bo'limini tanlang. **Shape** holatini o'rnatish.

1-kadrda kursorni o'rnatgan holda, **Enter** tugmasini bosing va hosil bo'lgan animatsiyani ko'ring. Oxirgi natijani ko'rish uchun esa **Control > Test Movie (Ctrl+Enter)** buyrug'ini bajaring.

Mazkur usul obyekt xususiyatlarini boshqarish uchun xizmat qiladi. Eng oddiy foydalanish sifatida obyekt koordinatalarining o'zgarishini keltirishimiz mumkin.

Yangi fayl yarating va aylana chizing. **Paint Bucket (U)** instrumenti yordamida oq-qora radial gradiyent bilan uning ichini bo'yang.

Obyektni belgilang (**Insert > Select All (CTRL+A)**) va bosh menyudan **Insert > Convert to Symbol.....(F8)** buyrug'ini bajaring. **Name** maydonida obyektga nom bering: **ball**

Belgilashni bekor qilmay turib, **Window > Inspectors > Object** panelida qo'yidagi parametrlarni o'rnatish: **x= 150, y= 50, w=50, h= 50**.

61-kadrni kalit kadr qiling.

Sichqoncha tugmasini **1-30 kadrlar** orasida ikki marta bosing va hosil bo'lgan paneldan **Tweening** bo'limini tanlang. **Motion** holatini o'rnatish.

31-kadrni kalit kadr qiling (**F6**).

Ushbu kadrda obyektni tanlang va **Object** panelida **u =250** koordinatasini o'rnatish. Birinchi kadrda kursorni o'rnatgan holda, **Enter** ni bosing va natijani ko'ring.

Tasavvurning to'liq hosil bo'lishi uchun **28 va 34-kadrlarni** kalit kadr qiling, shundan so'ng **31-kadrda Window > Inspectors > Transform** paneli yordamida koptokni vertikal bo'yicha qisqartiring (**80%**).

MA'RUZA № 5. VEB-DIZAYN ASOSI.

Reja

1. Veb-dizayn asosiy tushunchalari.
2. Macromedia Dreamweaverda veb -sahifalarni yaratish.
3. O'quv veb-saytini yaratish.

**Tayanch so'zlar
va iboralar**

HTML, fond, web-brauzer, veb-sahifa, veb-sayti, server, ommaviy axborot, rang; shrift; grafikalar; PHP, ASP VBScript, ASP.NET, C++, JavaScript, XML, XSLT, interfeys, sohani tahrirlash, qo'shish paneli

1. Veb-dizayn asosiy tushunchalari.

1989 yilning oxirida ARPANet mukammal holga yetib keldi lekin bu vaqtga kelib ko'pgina univetsitetlar va ilmiy muassasalar Internetga ulangan edilar. 1990 yillar boshlarida korporatsiyalar ham Internetdan elektron pochta orqali ma'lumotlar almashishda aktiv ishtirok etardilar. U vaqtlarda Milliy Ilmiy fond tijorat maqsadida Internetdan foydalanishni ta'qiqlagan edi. 1991 yilda bu cheklash bekor qilinadi va Internetdan tashkilot, muassasa, nohukumat tashkilotlarining foydalanish darajasi ortdi, shuningdek tijorat maqsadida Internetdan keng foydalanila boshlandi (Internet magazinlar, Internet reklamalar va h.k.). 1993 yilda birinchi web-brauzer Mosaic paydo bo'ldi.

Veb-dizayn - veb-sahifalar va veb-saytlar yaratish.

Veb-sahifa brauzer yordamida brauzer orqali ochilishi va ko'rilishi mumkin bo'lgan hujjatdir.

Veb-sayt - ma'no va navigatsiya bilan birlashgan veb-sahifalar majmuasi.

Veb-server - veb-sahifalarni va veb-saytlarni saqlaydigan tarmoqqa ulangan kompyuter.

Veb-sahifa dizayni quyidagi elementlarning rivojlanishini o'z ichiga oladi:

- rang;
- shrift;
- grafikalar;
- veb-sahifa dizayni.

Saytlarni yaratishning zamonaviy texnologiyalari quyidagilardan iborat:

- veb-dasturlash tillari: JavaScript, JAVA, Perl, PHP;
- texnologiyalar: CGI, SSI, ASP;
- kaskad uslublar jadvallari - CSS;
- Flash texnologiyasi Macromedia'dan.

WWW kontsepsiyasi.

WWW (World Wide Web) - bu qanaqadir Internetdan ajratilgan ma'lum bir joy emas, kompyuter aloqa o'rnatadigan biror nima ham emas. Butunjahon o'rgimchak to'rini Internet doirasidagi xizmat deyish to'g'riroq. Web-serverlar deb

ataluvchi ma'lum protokollardan, kompyuterlardan foydalanish orqali (chunki ular tarmoqqa ulangan va server dasturiy ta'minotiga ega) Internet xizmati yo'lga qo'yiladi.

Kompyuter web-server bo'lishi uchun Internetga ulangan va server dasturiy ta'minotiga ega bo'lishi yetarli. Bu dasturiy ta'minoti bilan Windows, Mac OS, Unix kabi operatsion tizimlar ta'minlay oladi. Web-server har doim Internetda "o'tiradi" va talab qilingan tomonga kerakli axborotni jo'natadi.

Internet manzili (URL) bilan bir xil ma'noda belgilanuvchi mantiqiy birlik. U web-saytning tarkibiy qismidir. Web saytlardan iborat bo'lsa, web-saytlar esa o'z navbatida web-sahifalardan iborat deyish mumkin. Fizik nuqtai nazardan u HTML fayldir.

- **WWW** - ommaviy axborot vositalarida tarqatiladigan ommaviy axborot tizimi.
- **Tarqatilgan axborot tizimi:** ma'lumotlar WWW-serverlar (serverlar) deb ataladigan ulkan darajada saqlanadi.
- **Multimedia:** axborot faqatgina matnni emas, balki ikki va uch o'lchamli grafikalar, video va tovushlarni ham o'z ichiga oladi.
- **Gipermatn:** WWWdagi ma'lumotlar ichki muroajatlar va boshqa hujjatlarga muroajatlar o'z ichiga olgan hujjatlar shaklida taqdim etiladi.

To'liq ish uchun veb-konstruktorga quyidagilar kerak:

- HTML hujjat ishlab chiquvchisini (MS Front Page) kiriting.
- Vektorli grafik muharriri (CorelDraw)
- Raster grafikalar muharriri (Adobe Photoshop)
- Brauzer (Internet Explorer)
- Cyrillic transcoder (ConvHTML va SNKDE kodi)
- HTML Optimizer (UtilMind HTML Kompressor)
- GIF raster tasvir optimizatori (GIF-Clean 32)
- JPEG raster tasvir optimizatori (JPEGCleaner)
- Animatsiya muharriri (Flash)

2. Macromedia Dreamweaverda veb -sahifalarni yaratish.

Macromedia Dreamweaver 8 - bu veb sahifa yaratish uchun eng qulay dastur hisoblanadi.

Bu dastur yordamida siz nimalarni amalga oshira olishingiz mumkin.

1. Bu dastur avvalo sizga HTML kodlarini o'zi kiritadi ya'ni siz kod kiritib o'tirishingizning hojati yo'q.

Masalan. Biz **HTML** tilini o'rganganda Windows ning Bloknotidan foydalangan edik va veb sahifaga rasm joylashtirish uchun `` qilib eng kamida kiritishimiz shart edi, endi esa shunchaki menyu qatoridan **Insert > Image** ga kirib kerakli rasmni tanlasak bas o'zi biz uchun bu kodlarni avtomatik tarzda kiritib boradi.


2. Bu dasturni siz nafaqat **HTML** yoki **CSS** lar uchun balki boshqa bir talay veb sayt uchun ishlov beriladigan dasturlar, ya'ni **ColdFusion, PHP, ASP VBScript, ASP.NET, C++, JavaScript, XML, XSLT**, kabilar uchun ham foydalanishingiz mumkindir.


3. Siz shuningdek bu dastur yordamida Internetdagi veb saytingizni nazorat qilishingiz mumkindir. Ya'ni siz **HTML** xujatingizga har qanday o'zgarishni kiritsangiz va "put file" qilsangiz sizni kiritgan o'zgartmangiz Internetdagi veb saytingizda ham o'zgaradi.

4. Hullas siz veb saytingiz uchun barcha narsani shu dastur yordamida bajarasiz. Aksariyat professional web masterlar shu dasturdan foydalanishadi, albatta bunga o'xshash boshqa web page editor dasturlari ko'p masalan: **Microsoft FrontPage, Adobe Pagemill, Adobe GoLive, NetObjects Fusion, CutePage, HotDog Proffesional, Netscape Composer** va

Arachnophilia, biroq kompyuter texnologiyalariga ixtisoslashgan chet el unversitetlarida ham birinchi o'rinda **Macromedia Dreamweaver** o'qitiladi. Bu dasturni o'rganishning eng oson yo'li bu biror veb sayt yaratib o'rganishdir. Biroq avvalo bu dastuning interfeysi bilan tanishib chiqsak.

Dastur darchasining elementlari:






Ushbu oynada siz raqamlar bilan ko'rsatilgan beshta asosiy blokni tanlashingiz mumkin:

1. Bosh menyu.
2. Ob'ektlarni qo'shish.
3. Hujjatni ko'rsatish paneli.
4. Sohani tahrirlash.
5. Xossa paneli.

Menyu paneli (asosiy menyu) buyruqlar, muloqot qutilari, dastur bilan ishlaydigan tugmachalar, uning sozlamalari va hujjat yaratish jarayoni nazorat qilinadi.


File Edit View Insert Modify Text Commands Site Window Help

Asboblar paneli eng tez-tez ishlatiladigan buyruqlar va tahrirlovchisi resurslarini chaqirishga mo'ljallangan tugmalarni birlashtiradi.



Belgilagich belgilash - bu kursorni o'rab turgan **HTML** formatlash identifikatorlarini ko'rsatadigan ko'rsatkich.

Palet xususiyat inspektori (Property inspector) - tanlangan ob'ektning xususiyatlarini aks ettiradi.



Qo'shish paneli tashqi obyektlarni qo'shish va yaratish uchun ishlatiladi.

Kod inspektori ko'p tilli hujjatlarni formatlash kodlarini ko'rish va tahrirlash uchun mo'ljallangan.

Hujjat obyektlari va ularning xususiyatlari:



Common (Umumiy) - eng tez-tez ishlatib turadigan ob'ektlar (rasmlar, ko'priklar, jadvallar va boshqalar. Suzib chiqish asboblari panelida ko'rish mumkin)

Layout - jadvallar va qatlamlarni belgilashda ishlatiladi.

Text (matn) - matnlar, jumladan sarlavhalar, ro'yxatlar va boshqalar.

Table (jadvallar) - jadvallarni qo'shish.

Frame (kadr) - ko'p oynali sahifalar yaratish.

Forms (shakllar) - shakllar qo'shish.

Templates (shablonlar) - shablonlar (blankalar) sahifalar bilan ishlash.

Characters (belgilar) - maxsus jihozlarni joylashtirish uchun belgilar.

Media – "Jonlashtirishr" sahifalar (Flash, Applet, va boshqalar) uchun maxsus moslamalarni kiritish.

Head (hujjat boshlig'i) – meta kiritish uchun – teglar va boshqa teglar orasida <HEAD> ..</HEAD>

Script (skript) - skriptlar dizayni uchun teglarni joylashtiring.


Application (ilova) – kiritilgan ilovalarni loyihalash.

Ishlash tartibi

- **Dizayn (Rejalashtirish rejimi)** - bu matnli sahifani vizual tartibga solishning odatiy usulidir;
- **Kod (Markup tartibi).** Ushbu rejimda, ko'p satr sahifasining to'liq manba kodi barcha identifikatorlar, meta teglar, skriptlar va izohlar bilan ko'rsatiladi. Bu kod

tartibi;

- **Split (Layout va rejalashtirish rejimi).** Bu sahifaning ikki qismga bo'linadigan birlashgan rejimi: kodlar birida ko'rsatiladi va barcha moslamalarni va formatlash xususiyatlarini boshqa tartibda joylashtirish.





3. O'quv veb-saytini yaratish.

Dasturdagi asosiy harakatlar


1) БҒТАВКА ТЕКСТА


Matnni formatlash uchun **Text** asboblar panelinidan **Insert** asboblar paneli qo'shing va **Properties** asboblar paneli asboblar panelini ishlating.



2) Tasvirni grafik usulida joylashtirish

Ish qurollar paneli “БҒТАВКА” Insert – Common – Image.







3) Jadvalni qo'shish

Jadvallar quyidagilardan iborat:


- Ma'lumotlarni tuzish
- Veb-sahifa elementlarining joylashishi (rasmlar, matn qismlari) Jadvalni kiritish uchun Insert - Table (Вставка - Таблица) buyrug'ini ishlatish.




4) Shakl obyektini qo'shish.

Shaklni joylashtirish uchun siz avval Insert – Form buyrug'ini bajarishingiz kerak so'ng, siz shakl obyektlarini qo'shishingiz yoki Insert - Form Object

Buyruqdan foydalaning.



Yoki konstruktor panelida joylashgan tugmalardan foydalaning. Xossa panelidan foydalanib, har bir shakl elementini o'zgartirishingiz mumkin.



MA'RUZA № 6. ELEKTRON O'QUV DARSlikLARNI YARATISH UCHUN TIZIMLI QUROLNI QO'LLASH TEXNOLOGIYASI.

Reja

1. Elektron ta'lim vositalari va ulardan foydalanish.
2. Elektron ta'lim vositalarini tasnifi.
3. Elektron ta'lim vositalarini yaratish uchun dasturiy vositalar.
4. ISPRING SUITE- interaktiv va multimedia kontentini yaratish dasturi.

Tayanch so'zlar
va iboralar

Elektron nashr (EN), elektron darslik (ED), pedagogika tizimi, axborot texnologiyalari, axborot va ta'lim resurslari, elektron o'quv vositalari (EOV), multimedia texnologiyalari.

1. Elektron ta'lim vositalari va ulardan foydalanish.

Elektron nashr (EN) grafik, matn, raqamli, nutq, musiqa, video, foto va boshqa ma'lumotlar to'plamidir. Axborot (yoki axborot-ma'lumotnoma) manbalari, axborotni yaratish va qayta ishlash vositalari, boshqaruv tuzilmalari bir elektron nashrda ajratilishi mumkin.

Elektron ta'lim vositasi (ETV) - bu sohadagi bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni talabalarni ijodiy va faol o'zlashtirishni ta'minlaydigan tegishli ilmiy-amaliy sohada tizimli materiallar o'z ichiga olgan elektron nashrdir.

ETV afzalligi:

- faqat sizning raqamli va matnli ma'lumotlarni emas, balki audio, grafika, videolarni ishlashga imkon beruvchi multimediya vositalaridan foydalanish.
- displey ob'ektlarini boshqarish orqali inson-kompyuterning o'zaro ishlash jarayonini soddalashtirish imkonini beruvchi ob'ektga asoslangan texnologiyani amalga oshirish;
- Zamonaviy axborot-qidiruv texnologiyalaridan foydalanish;
- Mutaxassis va aqlli tizim elementlarining mavjudligi.

2. Elektron ta'lim vositalarini tasnifi.

Uning metodik maqsadiga ko'ra, elektron o'quv vositalari quyidagi turlarga bo'linadi:

- *o'quv dasturlari* – o'quv materialining zarur darajasini ta'minlash;
- *dasturiy ta'minot (tizimlar)* - simulyatorlar - o'quvchilarning ko'nikmalarini tekshirishni ta'minlash, o'z-o'zini o'qitish uchun yordam berish va o'quv materiallarini takrorlash yoki mustahkamlashda ishlatiladi
- *nazorat qilish dasturi* - ta'lim materiallarini o'zlashtirish darajasini nazorat qilish (o'z-o'zini boshqarish) uchun mo'ljallangan;
